1-son, 2026-yil

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal







ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Birinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qaroriga muvofiq pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Innovatsion pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:
Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor
Mas’ul muharrir:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor

Musahhih:
Norkulova G.
Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Quchqorova N.M.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Niyozmetova R. X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Nazarova D.A.	*Pedagogika fanlari nomzodi, professor;*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Alimbayeva Sh.T.	*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich
Globallashuv sharoitida ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalarning o‘rni 4
Egamberdiyeva Farida Oktamovna, Turgunova Aziza Avazbekovna
Using folk narratives to enhance students’ moral and ethical development in school pedagogy 13
Jumaniyozov Qudrat Sapoyevich, Pulatov Baxram Nigmatovich
Geometriya o‘qitishda innovatsion texnologiyalar 21
Bayjonov Furqat Baxramovich
Talabalarda gender madaniyatni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish 34
Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna, Rustamova Barno Abduxalilovna
O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni she’riyat vositasida rivojlantirishning ahamiyati 43
Mamadiyorov Jamol Baxodirovich
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish 53
Xursanova Ruxsora Olimjon qizi
“Motion control xr” innovatsion qurilmasining kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar dars mashg‘ulotlari samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri 64
Qodirova Mashxura Mirzaakbarovna
Bo‘lajak pedagoglarning nutqiy malakasini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik vositalar va metodologik strategiyalarning samaradorligi 73

PSIXOLOGIYA

Mirqosimova Marg‘uba Mirqobilovna
Ta’lim-tarbiya jarayonida tolerantlik sifatlarini shakllantirish zarurati 83
Norqoziyev Doniyorbek Bakhtiyorovich
Social and psychological determinants of constructive life strategy formation in adolescents 90
Shomurodov Jamshid Olimboy o‘g‘li
Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning konseptual asoslari 101
O‘rozaliyev Oybek Abdujamol o‘g‘li
Abdulla Qodiriy ijodida shaxsiy rivojlanish konsepsiyasining zamonaviy psixologiya nuqtayi nazaridan tahlili 112
Sakiyev Sardor Shuxratovich
Ichki ishlar organlari xodimlarining o‘z kasbiga sadoqat ruhida tarbiyalashni takomillashtirish modeli 124
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna
Interaction of altruistic and tolerant behavior in the person 135

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

https://zenodo.org/records/19442253

Mamadiyorov Jamol Baxodirovich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi v/b dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.:+998930058099
E-mail: jamol0058099@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashning mazmuni o‘quvchining bilish faoliyati bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar – subyektiv baholash, tahlil qilish, taqqoslash, refleksiya hamda mantiqiy xulosa chiqarish operatsiyalari bilan izohlanadi. Boshlang‘ich maktab yoshida tafakkur konkret obrazli xarakterga ega bo‘lsa-da, aynan shu davrda mantiqiy operatsiyalar shakllanishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay psixologik zamin yaratishi asoslab beriladi.

Maqolada interaktiv metodlarning (fikrni asoslab bayon qilish, savollarni murakkablik darajasi bo‘yicha berish, qisqa mazmuniy ifoda usullari va muammoli vaziyatlar) o‘quvchilarning tahliliy tafakkuri, dalillash madaniyati, umumlashtirish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv rivojlanish, refleksiv tafakkur, Bloom's Taxonomy, FSMU texnikasi, Sitsinkveyn, muammoli ta’lim, coping-strategiyalar.*

Abstract. The article examines the pedagogical and psychological foundations of using interactive teaching methods to develop critical thinking skills in primary school students. Critical thinking is interpreted as a complex cognitive process involving subjective evaluation of information, analysis, comparison, reflection, and logical reasoning. The study emphasizes that primary school age represents a sensitive period for the formation of logical operations, which creates a psychological basis for the development of critical thinking.

The paper highlights the role of interactive methods such as structured argumentation, cognitive-level questioning techniques, concise meaning-expression strategies, and problem-based learning in fostering analytical thinking, argumentation culture, generalization skills, and independent decision-making abilities.

Keywords: *critical thinking, interactive methods, primary education, cognitive development, reflective thinking, Bloom's Taxonomy, FSMU technique, cinquain method, problem-based learning, coping strategies.*

Аннотация. В статье анализируются педагогические и психологические основы использования интерактивных методов в формировании критического мышления у учащихся начальных классов. Критическое мышление рассматривается как сложный когнитивный процесс, связанный с субъективной оценкой информации, анализом, сравнением, рефлексией и логическим выводом. Обосновывается, что младший школьный возраст является благоприятным периодом для развития логических операций, что создает психологическую основу для формирования критического мышления.

Показано, что интерактивные методы обучения (аргументированное выражение мысли, система вопросов различной когнитивной сложности, методы краткого смыслового выражения, проблемные ситуации) способствуют развитию аналитического мышления, культуры аргументации, обобщения и навыков самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: *критическое мышление, интерактивные методы, начальное образование, когнитивное развитие, рефлексивное мышление, таксономия Блума, техника FSMU, синквейн, проблемное обучение, копинг-стратегии.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchi bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni anglaydigan, baholaydigan va asoslaydigan subyekt sifatida shakllanishi lozim. Axborot hajmining keskin ortishi, turli qarashlar va ma’lumotlarning bir vaqtning o‘zida mavjudligi sharoitida shaxsning mustaqil fikr yurita olishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash aynan shu vazifani bajaruvchi intellektual mexanizm sifatida qaraladi. U o‘quvchiga axborotni tahlil qilish, asoslangan xulosa chiqarish hamda qaror qabul qilish jarayonida ongli pozitsiyani egallash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs tafakkurining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Aynan shu yoshda bilish jarayonlari tizimli tus ola boshlaydi, o‘quv faoliyati esa bola rivojlanishining yetakchi omiliga aylanadi. O‘quvchi atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirar ekan, ularni solishtirish, tasniflash va umumlashtirishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj tanqidiy fikrlashning dastlabki elementlarini yuzaga keltiradi (To‘xtayeva M.M., 2018: 74).

Psixologik jihatdan tanqidiy fikrlash tafakkurning yuqori operatsiyalari — tahlil, umumlashtirish, refleksiya va nazorat jarayonlari bilan bog‘liq (Raxmonov A., 2017: 118). O‘quvchi o‘z fikrining asoslanganligini tekshirishga, dalillarning ishonchliligini baholashga va xulosalarini qayta ko‘rib chiqishga o‘rganadi. Bu esa bilish jarayonini passiv qabul qilishdan faol qayta ishlash bosqichiga olib chiqadi.

Shuningdek, boshlang‘ich yoshda nutq faoliyatining rivojlanishi tafakkurning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash jarayonida uni izchil tuzishga, sabab–natija bog‘lanishlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning kommunikativ asosini yaratadi (Yo‘ldoshev J.G., 2020: 44).

Ta’lim jarayonida interaktiv muhit yaratish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Muloqot, hamkorlik va muammoli vaziyatlarga asoslangan faoliyat o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, uni izlanishga undaydi va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi (Qodirov B.R., 2019: 58). O‘quvchi fikr almashish jarayonida turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi, o‘z pozitsiyasini asoslaydi va shu orqali intellektual tajriba orttiradi.

Shu bois tanqidiy fikrlashni shakllantirish boshlang‘ich ta’limda nafaqat didaktik vazifa, balki ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida qaraladi. Bu ko‘nikma o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida murakkab bilimlarni o‘zlashtirishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tanqidiy fikrlash pedagogik va psixologik adabiyotlarda shaxs tafakkurining yuqori darajadagi shakli sifatida talqin qilinadi. U refleksivlik, dalillashga tayangan fikr yuritish hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani shaxsning axborotni shunchaki qabul qilishi emas, balki uni tekshirishi, tahlil qilishi va baholashi bilan bog‘laydilar (Qodirov B.R., 2019: 36). Bu jihat tanqidiy fikrlashni reproduktiv tafakkurdan ajratib turuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Fikrlash sifatining shakllanishi aniqlik, izchillik, mantiqiylik va dalillanganlik kabi intellektual mezonlarga tayangan holda kechishi ta’kidlanadi (Yo‘ldoshev J.G., 2020: 61). Mazkur mezonlar o‘quvchining fikrni asoslash madaniyatini shakllantiradi hamda tafakkur jarayonining tartibli va izchil rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois tanqidiy fikrlash faqat bilim miqdori bilan emas, balki fikr yuritish sifati bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich yosh davrida tafakkurning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ushbu bosqichda o‘quvchilarning bilish faoliyati o‘quv jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. O‘qitish jarayonida muloqot, hamkorlik va o‘zaro ta’sir tafakkur faolligini kuchaytiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi. Bu

jarayonda o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki fikr yuritish usullarini ham o‘zlashtiradi. Ayniqsa, dialogik muloqot tafakkurning ijtimoiy xarakter kasb etishiga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlarning psixologik asoslari ham aynan shu jarayon bilan bog‘liq. O‘quvchining faol ishtiroki, savol berishi, fikr bildirishi va muhokamada qatnashishi uning tafakkur jarayonini faollashtiradi. Interaktiv metodlar o‘quvchini bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni qayta quruvchi subyektga aylantiradi. Shu jihatdan ular konstruktiv ta’lim yondashuviga mos keladi, chunki bilim faol kognitiv faoliyat natijasida shakllanadi.

Muammoli vaziyatlarga asoslangan o‘qitish metodlari o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kuchaytiruvchi samarali vosita sifatida ko‘rib chiqiladi (Raxmonov A., 2017: 140). Bunday vaziyatlarda mavjud bilimlar bilan yangi talab o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu kognitiv ziddiyat o‘quvchini faol fikrlashga undaydi. Muammoni hal etish jarayonida tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish operatsiyalari tabiiy ravishda ishga tushadi. Shu tariqa tanqidiy fikrlash mexanizmlari faol shakllanadi.

Savollarni murakkablik darajasi bo‘yicha berish ham o‘quvchilarning fikrlash chuqurligini oshiruvchi metod sifatida tavsiflanadi (To‘xtayeva M.M., 2018: 112). Faktologik savollardan tahliliy va baholovchi savollarga o‘tish tafakkur darajasining o‘sishiga olib keladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning sabab–natija aloqalarini tushunishi va dalillangan xulosalar chiqarishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda interaktiv ta’limning yana bir muhim jihati sifatida jamoaviy muloqot va hamkorlik ko‘rsatiladi. Guruhli ish shakllarida o‘quvchilar o‘z fikrini boshqalar bilan solishtiradi, muqobil nuqtayi nazarlarni tinglaydi va muammoni birgalikda hal etadi. Bu jarayon tafakkurning dialogik va refleksiv xarakterini kuchaytiradi. Natijada o‘quvchi o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqish va asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, adabiyotlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida o‘qituvchining roli ham alohida ta’kidlanadi. O‘qituvchining konstruktiv muloqotga tayangan pedagogik pozitsiyasi, savollar orqali yo‘naltirishi hamda psixologik xavfsiz muhit yaratishi o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratadi. Bu esa tanqidiy fikrlash jarayonining tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Biroq mavjud tadqiqotlar ko‘proq tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar yoki boshlang‘ich yosh psixologiyasini alohida o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ularni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash, ya’ni kognitiv mexanizmlar, interaktiv metodlar va psixologik omillarni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan shu holat ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili tanqidiy fikrlash, interaktiv ta’lim va boshlang‘ich yoshdagi intellektual rivojlanish o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq ularni yagona pedagogik tizim asosida qo‘llash mexanizmlarini ishlab

chiqish ilmiy izlanishni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu yo‘nalishda nazariy asos yaratishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda interaktiv metodlarning pedagogik va psixologik samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot dizayni aralash usulga asoslangan bo‘lib, nazariy va empirik bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Nazariy bosqichda mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tizimli tahlil qilingan, empirik bosqichda esa interaktiv metodlarning amaliy qo‘llanilishi o‘rganilgan. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining nazariy asoslarini empirik natijalar bilan tasdiqlashga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchining bilish jarayonida sodir bo‘ladigan ichki kognitiv faoliyat bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchi ma’lumotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni mavjud bilimlari bilan bog‘laydi, taqqoslaydi va xulosa chiqaradi. Shu sababli tanqidiy fikrlash faqat dars metodlari natijasi emas, balki tafakkurning psixologik jarayonlari bilan bog‘liq murakkab intellektual faoliyatdir (Mamadiyorov J.B., Rashidova M., 2025: 78).

O‘quvchining axborotni subyektiv baholashi uning shaxsiy tajribasi va mavjud bilimlariga tayangan holda kechadi. Bu esa bilimni mexanik o‘zlashtirishdan mazmunan tushunish bosqichiga o‘tishga yordam beradi. O‘quvchi ma’lumotni tayyor haqiqat sifatida qabul qilmay, uni tahlil qiladi va o‘z qarashlari bilan bog‘laydi. Natijada bilim ichki tafakkur tizimining bir qismiga aylanadi.

Tahlil qilish ko‘nikmasi ma’lumotni qismlarga ajratish, asosiy va ikkilamchi jihatlarni farqlash hamda sabab–natija aloqalarini ko‘ra bilishda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini ham nazorat qila boshlaydi, dalillarning ishonchliligini tekshiradi va xulosalarning asoslanganligini baholaydi.

Muammoli vaziyatlar tafakkurni faollashtiradi. O‘quvchi mavjud bilimlari yetarli bo‘lmagan holatda muammoni hal qilishga harakat qiladi va shu jarayonda yangi bilimlarni o‘zlashtiradi (Mamadiyorov J., 2021: 1873). Xulosa chiqarish bosqichida vaziyatni tushunish, shartlarni tahlil qilish, ehtimoliy yechimlarni ko‘rib chiqish va umumlashtirish ketma-ket amalga oshadi.

Interaktiv metodlar — tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi vosita

FSMU texnikasi o‘quvchini fikrini izchil asoslab ifodalashga o‘rgatadi. Fikr, sabab, misol va umumlashtirish ketma-ketligi dalillash madaniyatini shakllantiradi hamda mantiqiy xulosa chiqarishga yordam beradi.

Savollarni murakkablik darajasi bo‘yicha berish o‘quvchilarning fikrlash chuqurligini oshiradi. Oddiy savollardan sababiy va baholovchi savollarga o‘tish ularni mustaqil fikr bildirishga olib keladi.

Sitsinkveyn metodi esa tushunchaning mohiyatini qisqa va aniq ifodalashga o‘rgatadi. Bu jarayon o‘quvchida sintez qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Murakkab topshiriqlar o‘quvchida zo‘riqish keltirib chiqarishi mumkin. Faol yengib o‘tish strategiyalari o‘quvchiga qiyinchilikni tahdid emas, balki hal qilinadigan vazifa sifatida qabul qilishga yordam beradi. Bu o‘ziga ishonch va ichki motivatsiyani mustahkamlaydi.

Jamoaviy muloqot esa muammoni birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. O‘quvchilar fikr almashadi, bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va bu jarayon emotsional barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Interaktiv muhitda o‘qituvchining vazifasi psixologik xavfsizlikni ta’minlashdir. Konstruktiv muloqot o‘quvchilarda erkin fikr bildirish va savol berish madaniyatini shakllantiradi. O‘qituvchining yangilikka ochiqligi esa dars jarayonining samaradorligini oshiradi (Mamadiyorov J., 2023: 149).

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash uyg‘unlashganda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy manbalar hamda pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning intellektual rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchi tafakkurining sifat jihatdan o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda qo‘llanilgan interaktiv metodlar tafakkurning reproduktiv darajadan tahliliy, refleksiv va mazmuniy darajaga o‘tishini ta’minlovchi didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada bilimni mexanik takrorlash o‘rnini ongli idrok etish va asoslangan fikr yuritish egallaydi.

Kognitiv jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ma’lumotni subyektiv baholash, dalillash va tahlil qilish operatsiyalari o‘quvchining bilimni ongli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. O‘quvchi axborotni tayyor shaklda qabul qilmay, balki uni mavjud bilimlari bilan taqqoslaydi, ichki kognitiv tuzilmasiga moslashtiradi va shaxsiy xulosaga keladi. Bu jarayon tafakkurning faol xarakter kasb etishini ko‘rsatadi. Natijada bilim eslab qolingan ma’lumot emas, balki anglangan, asoslangan va mazmuniy tizimga integratsiyalashgan bilimga aylanadi. Ushbu holat o‘quvchilarning intellektual mustaqilligi shakllanishining muhim ko‘rsatkichi sifatida baholandi.

Interaktiv metodlarning ta’siri tahlili shuni ko‘rsatdiki, fikrni asoslab bayon qilishga yo‘naltirilgan metodlar o‘quvchilarda mantiqiy izchillik va dalillash madaniyatini shakllantiradi. Fikrni sabab bilan bog‘lash, misol bilan mustahkamlash va umumlashtirish jarayonlari tafakkurning strukturalashuviga olib keladi. Bu esa o‘quvchilarda mulohazalarning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi. Savollarni kognitiv murakkablik darajasi bo‘yicha berish o‘quvchilarning fikrlash chuqurligini oshirib, ularni sabab–natija aloqalarini tushunishga va baholovchi xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Qisqa mazmuniy ifoda metodlari esa tushunchaning mohiyatini ajratib olish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar natijasida o‘quvchilarda kognitiv ziddiyat yuzaga kelishi, bu esa tafakkur faolligini oshirishi aniqlandi. O‘quvchi mavjud bilimlari yetarli bo‘lmagan vaziyatda yangi yechim izlashga majbur bo‘ladi. Ushbu jarayon tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish operatsiyalarini tabiiy ravishda faollashtiradi. Natijada o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarga ijodiy va mantiqiy yondashuv shakllanadi. Bu holat tanqidiy fikrlashning amaliy faoliyat bilan bog‘lanishini ta’minlaydi.

Psixologik omillar tahlili faol coping-strategiyalar, jamoaviy muloqot va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarda emotsional barqarorlikni ta’minlashini ko‘rsatdi. Murakkab topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning irodaviy sifatlari rivojlanadi, “qila olmayman” pozitsiyasi o‘rnini “qanday bajarish mumkin?” degan faol yondashuv egallaydi. Bu esa tafakkurning barqarorligini va intellektual moslashuvchanlikni kuchaytiradi. O‘quvchi qiyinchilikni to‘siq emas, balki hal etilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilishga o‘rganadi.

Jamoaviy muloqot jarayonida o‘quvchilar fikr almashadi, muqobil nuqtayi nazarlarni eshitadi va ularni taqqoslaydi. Bu jarayon tafakkurning dialogik xarakterini kuchaytiradi hamda refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z xulosalarini qayta ko‘rib chiqish va asoslashga o‘rganadi. Natijada tafakkur jarayoni individual emas, ijtimoiy boyitilgan xarakter kasb etadi.

O‘qituvchining metodik mahorati bilan bog‘liq natijalar interaktiv muhit samaradorligi pedagogning emotsional barqarorligi va konstruktiv muloqotiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Psixologik xavfsiz muhit yaratilganda o‘quvchilar erkin fikr bildiradi, savol beradi va o‘z pozitsiyasini asoslashga harakat qiladi. Bu holat tanqidiy fikrlashning tabiiy rivojlanishiga sharoit yaratadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi yondashuv tafakkur jarayonining erkin va faol kechishiga imkon beradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan nazariy-pedagogik tahlillar interaktiv metodlarga asoslangan ta’lim muhiti o‘quvchilarda:

— refleksiv tafakkur,

— mantiqiy izchillik,

— dalillash madaniyati,
— mustaqil qaror qabul qilish,
— intellektual moslashuvchanlik,
— muammoli vaziyatlarda faol pozitsiya egallash
ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni interaktiv metodlar, kognitiv mexanizmlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash omillari uyg‘unligida samarali kechishi aniqlandi. Mazkur natijalar boshlang‘ich ta’lim jarayonini o‘quvchi markazli, tahliliy va refleksiv yo‘nalishda tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar boshlang‘ich ta’lim bosqichida tanqidiy fikrlashni shakllantirish interaktiv pedagogik muhit bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, tanqidiy fikrlash alohida metod yoki topshiriq orqali emas, balki o‘quv jarayonining umumiy didaktik tuzilmasi o‘zgargan taqdirdagina barqaror shakllanadi. Bu holat tanqidiy fikrlashni o‘qitish obyekti emas, balki ta’lim jarayonining funksional natijasi sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy manbalar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotda aniqlangan kognitiv mexanizmlar — subyektiv baholash, refleksiya, dalillash va mantiqiy xulosa chiqarish — tanqidiy fikrlash tuzilmasining asosiy komponentlari sifatida boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Biroq mavjud adabiyotlarda ushbu komponentlar ko‘pincha alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning interaktiv metodlar bilan uzviy integratsiyasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur maqolada esa aynan shu integratsiyalashgan yondashuv asoslandi: metod (interaktivlik), psixologik sharoit (qo‘llab-quvvatlovchi muhit) va kognitiv jarayonlar bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilarda tafakkurning strukturaviy o‘zgarishi yuz beradi. Reproduktiv fikrlashdan tahliliy fikrlashga o‘tish jarayonida o‘quvchilar savol berish, fikrni asoslash va muqobil nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqishga o‘rganadi. Bu esa tafakkurning refleksiv xarakter kasb etishiga olib keladi. Shunday qilib, interaktivlik nafaqat o‘quvchilarning faolligini oshiradi, balki fikrlash sifatini ham o‘zgartiradi.

Muammoli vaziyatlar bilan bog‘liq natijalar ham muhim ilmiy xulosani ko‘rsatdi: kognitiv ziddiyat tafakkur rivojlanishining tabiiy mexanizmi hisoblanadi. O‘quvchi qiyinchilikka duch kelganda, u mavjud bilimlar tizimini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon refleksiya va umumlashtirish operatsiyalarini faollashtiradi. Demak, muammoli vaziyatlar o‘quvchining intellektual rivojlanishida rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Psixologik omillar bilan bog‘liq natijalar ham alohida ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlashning barqaror shakllanishi emotsional xavfsiz muhit bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘quvchi xatodan qo‘rqmagan sharoitdagina erkin fikr bildiradi, savol beradi va o‘z pozitsiyasini asoslashga harakat qiladi. Shu bois tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayon bilan bir qatorda psixologik muhitni ham o‘zgartirishni talab qiladi.

O‘qituvchining roli bilan bog‘liq natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv ta’lim sharoitida pedagogning funksiyasi bilim beruvchidan ko‘ra ko‘proq yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi xarakter kasb etadi. O‘qituvchi savollar orqali tafakkurni faollashtiradi, lekin tayyor xulosa bermaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning intellektual mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga yangicha yondashuvni taklif etadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida mavzu yoki mashq emas, balki ta’lim jarayonining metodik tashkil etilishi bilan bog‘liq tizimli jarayon sifatida qaralishi lozim. Interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash birgalikda qo‘llangandagina barqaror natija beradi.

Shu jihatdan mazkur maqola natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasida interaktiv pedagogikaning ustuvorligini tasdiqlaydi hamda o‘quv jarayonini o‘quvchi markazli model asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchi shaxsining intellektual shakllanish jarayonida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon o‘quvchining bilimni faqat reproduktiv tarzda o‘zlashtirishi bilan cheklanmay, uni mazmunan anglash, tahlil qilish, taqqoslash hamda asoslangan xulosa chiqarish faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Aynan boshlang‘ich yosh davrida tafakkur operatsiyalarining shakllanishi faol bosqichga kiradi va bu davr tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun psixologik jihatdan qulay zamin yaratadi.

Subyektiv baholash, tahlil qilish, refleksiya va mantiqiy xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlar o‘quvchining bilish faoliyatini sifat jihatdan o‘zgartiradi. O‘quvchi axborotni shunchaki eslab qolmaydi, balki uni o‘z tajribasi, mavjud bilimlari va ichki dunyoqarashi bilan bog‘laydi. Natijada bilim tashqi axborot emas, balki shaxsning ichki intellektual tizimining tarkibiy qismiga aylanadi. Bu esa o‘qitish jarayonini mexanik o‘zlashtirish modelidan ongli va mazmuniy o‘zlashtirish modeliga olib o‘tadi.

Interaktiv metodlarning qo‘llanishi o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ldi. Fikrni sababiy asoslash, dalillar bilan mustahkamlash, sabab – natija aloqalarini ko‘ra bilish va umumlashtirish ko‘nikmalari

aynan interaktiv yondashuv orqali tizimli ravishda rivojlanadi. Bunday metodlar o‘quvchini tayyor javobni takrorlovchi emas, balki fikr yurituvchi va bilimni qayta quruvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Dars jarayonining reproduktiv xarakterdan izlanish va muammoli faoliyat xarakteriga o‘tishi tanqidiy fikrlash rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Murakkab topshiriqlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda nafaqat kognitiv, balki emotsional-irodaviy sifatlar ham rivojlanadi. Qiyinchiliklarni yengib o‘tish jarayonida o‘quvchining ichki motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va irodaviy barqarorligi mustahkamlanadi. “Qila olmayman” pozitsiyasi o‘rnini “qanday qilib bajarish mumkin?” degan faol izlanish pozitsiyasi egallaydi. Bu holat tafakkurning moslashuvchanligini oshiradi hamda o‘quvchining muammoli vaziyatlarga konstruktiv munosabatini shakllantiradi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, interaktiv ta’lim yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv tafakkur, mantiqiy izchillik, dalillash madaniyati va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash esa nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsning keyingi ijtimoiy va kasbiy faoliyatida ham muhim intellektual tayanch vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi fikr va xulosalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf darslarida interaktiv metodlarni tizimli ravishda qo‘llash orqali o‘quvchilarning tahliliy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik muhit yaratish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchilarni interaktiv metodlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamadiyorov J. (2025). Innovatsion yondoshuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 3(7).

2. Mamadiyorov J. B. (2021). Development of practical activity skills of students in mathematics in e-learning environment // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. №.11(10).

3. Mamadiyorov J. B. (2023). Psychological possibilities of development of creative-practical skills of future primary class teachers // Results of modern scientific research. – P. 149-152.

4. Mamadiyorov J., & Rashidova M. (2025). Teacher's use of multimedia resources technology in teaching mathematics lesson in primary grades // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. №. 5(1). – P. 78-81.

5. Niyozova D. S. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirish. – Toshkent: Ziyo nashri.

6. Qodirov B. R. (2019). Ta’limda interaktiv metodlar. – Toshkent: Tafakkur.

7. To‘xtayeva M. M. (2018). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti.

8. Yo‘ldoshev J. G. (2020). Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat.

REFERENCES:

1. Mamadiyorov J. (2025). Innovatsion yondoshuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari// Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. №3(7). (In Uzbek)

2. Mamadiyorov J. B. (2021). Development of practical activity skills of students in mathematics in e-learning environment// Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.№11(10).

3. Mamadiyorov J. B. (2023). Psychological possibilities of development of creative-practical skills of future primary class teachers// Results of modern scientific research. – P. 149-152.

4. Mamadiyorov J., Rashidova M. (2025). Teacher's use of multimedia resources technology in teaching mathematics lesson in primary grades// Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 5(1). – P. 78-81. (In Uzbek)

5. Niyozova D. S. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirish. – Toshkent: Ziyo nashri. (In Uzbek)

6. Qodirov B. R. (2019). Ta’limda interaktiv metodlar. – Toshkent: Tafakkur.

7. To‘xtayeva M. M. (2018). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti. (In Uzbek)

8. Yo‘ldoshev J. G. (2020). Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat. (In Uzbek)

Oriental universitetining
“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Bosh muharrir: **Nishanova Z. T.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Egamberdiyeva F. O.**

Mas’ul muharrir: **Umarov B. M.**

Musahhih: **Norkulova G.S**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.

Telefon: +998 93 004-57-77. Murojaat uchun: https://t.me/Innovative_Pedagogy_Psychology

“Innovatsion pedagogika va psixologiya” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 061546 raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 26-fevral, 5-sonli
yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.